

SHAYX AHMAD TAROZIYNING “FUNUN UL-BALOG‘A”
ASARIDA SHE‘R NAV‘LARI TAHLILI

Madinabonu Mirzayeva

ToshDO‘TAU 2-kurs magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XV asrda yashagan Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy qalamiga mansub “Funun ul-balog‘a” asarida bayon etilgan she‘r nav‘lari va lirik janrlar tahlil qilinadi. Asar turkiy adabiyotshunoslikda bizgacha yetib kelgan ilk nazariy manba bo‘lib, unda qasida, g‘azal, qit‘a, ruboiy, masnaviy, tarji‘, musammat, mustazod, mutatavvil va fard kabi o‘nta she‘riy shaklning shakliy va mazmuniy xususiyatlari yoritilgan. Maqolada Taroziy keltirgan ta‘riflar, she‘riy namunalar va ularning turkiy mumtoz poetika taraqqiyotidagi o‘rni ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Funun ul-balog‘a, she‘r nav‘lari, lirik janrlar, qasida, g‘azal, ruboiy, tuyuq, musammat, turkiy adabiyotshunoslik.*

Abstract: *This article analyzes the poetic types and lyrical genres described in the work “Funun ul-balagha” by Shaykh Ahmad ibn Khudaydad Tarazi, who lived in the 15th century. The work is the first theoretical source in Turkic literary studies that has survived to our days. It covers ten poetic forms such as qasida, ghazal, qit‘a, rubai, masnavi, tarji‘, musammat, mustazod, mutatavvil, and fard, explaining their formal and content-related features. The article reveals the definitions, poetic examples, and the role of these genres in the development of Turkic classical poetics.*

Keywords: *Funun ul-balagha, poetic types, lyrical genres, qasida, ghazal, rubai, tuyuq, musammat, Turkic literary studies.*

Kirish

Sharq xalqlarida adabiyot so‘z san‘ati sifatida azaldan e‘zoz va e‘tiborga sazovor bo‘lgan. Asrlar davomida adabiyot uch tarkibiy qismga – ilmi aruz (she‘r o‘lchovlari ilmi), ilmi bade‘ (badiiy san‘atlar ilmi) va ilmi qofiya (qofiyashunoslik) – ajratilib, ularning har biri mustaqil ilm sifatida o‘rganilib kelingan. Fors olimlari buni “Ilmhoyi segona” (ilmlar uchligi) deb ataganlar. Bu uch ilm birgalikda mumtoz she‘rning nafosati va shoirning salohiyatini belgilovchi mezon hisoblangan.[Yusupova,2021] Ushbu ilmlarga oid risolalar, asosan, arab va fors tillarida yaratilgan. Turkiy adabiyotshunoslikda esa Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziyning “Funun ul-balog‘a” asari bu sohaga doir turkiy tilda yozilgan ilk nazariy manba hisoblanadi. Asarning fanga ma‘lum yagona qo‘lyozma nusxasi London shahridagi Bodlean kutubxonasida №-Elliott 127 raqami ostida saqlanadi. Qo‘lyozma kolofoniga ko‘ra, u hijriy 989 (milodiy 1581) yilda Buxoroda Mir Husayn Husayniy (Mir Kulanki nomi bilan mashhur) tomonidan ko‘chirilgan. Asar hajmi 139 sahifadan iborat.[Shayx Ahmad Taroziy, 2017:6] “Funun ul-balog‘a”ni ilmiy jamoatchilikka ma‘lum qilishda Ergash Umarov, Abduqodir Hayitmetov kabi olimlarning xizmati katta. A.Hayitmetov asar matnini 1993 yilda nashr

ettirgan, 1996 yilda tabdil qilish jarayoniga rahbarlik qilgan. Xorijda esa Devin de Uis (Indiana universiteti) 2005 yilda asar tahliliga bag'ishlangan maqola e'lon qilgan. Shunga qaramay, Taroziy risolasi adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan batamom o'rganilgan emas.

“Funun ul-balog‘a” asarining tuzilishi

Asar muqaddima va besh qismdan (fan) iborat bo'lib, muallif ularni quyidagicha belgilaydi:

1. Birinchi fan – she'rning aqsomini va anvoyini sharh qiladi (ya'ni she'r nav'lari).
2. Ikkinchi fan – qofiya va radif qavoyidini bayon qiladi.
3. Uchinchi fan – so'zning badoe' va sanoe'ini (badiiy san'atlar) zikr etadi.
4. To'rtinchi fan – she'rning taqti' va avzonini (aruz ilmi) tahlil qiladi.
5. Beshinchi fan – muammoning usul va arkonini tahrir etadi.

Beshinchi qism qo'lyozmada saqlanmagan. Maqolamizda asarning birinchi fanida bayon etilgan o'nta she'r nav'i tahlil qilinadi.

She'r nav'larining umumiy tavsifi

Taroziy o'z asarida she'r nav'larini “nav'” deb atab, o'nta shaklni sanab o'tadi: qasida, g'azal, qit'a, ruboiy, masnaviy, tarji', musammat, mustazod, mutatavvil va fard. Muallif bu nav'larning faqat shakliy xususiyatlariga (hajm, qofiya tizimi, band tuzilishi) emas, balki mazmun-mohiyati va mavzu ko'lamiga ham e'tibor beradi. U she'r quyidagi mavzularda bitilishi mumkinligini bayon qiladi: tavhid, na't, munojot, manaqib, madh, marsiya, hajv, mutoyiba va boshqalar.

Taroziy, shuningdek, asarning tarkibiy qismlari haqida ham ma'lumot beradi: fотиha (boshlanish), debocha (tavhid, munojot, na't, manaqib va sababi ta'lifdan iborat), xotima (yakun). She'rning ibtidosi matla', intihosi maqta deb atalishi, baytning juzvlari (sadr, hashv, aruz, ajz yoki zarb) haqida ham so'z yuritiladi.

O'nta she'r nav'ining tahlili

1. Qasida. Taroziy qasida hajmini “aqalli yigirma yetti bayt bo'lur” deb belgilaydi. Qasida o'z qofiya tizimiga ega, unda mamduhning adl-u insofi, shijoati, sahovati madh qilinadi. Muallif qasidaning ikki turini ajratadi: to'liq qasida (qasidai tom) va faqat madhdan iborat qasida (qasidai mujarrada). Shuningdek, husnu-l-matla', husni taxallus, husni talab, husnu-l-maqta' kabi istilohlarni izohlaydi. Misol sifatida o'z ijodidan va Amir Mu'izziy, Xoqoniy, Sa'diy, Sakkokiy kabi shoirlarning asarlaridan namunalari keltiradi.

2. G'azal. G'azalning aksari yigirma bayt, aqalli besh bayt bo'lishini ta'kidlaydi. To'rt baytli g'azallar zarurat yuzasidan qofiyasiz yozilishi mumkin – bunday g'azallar “harora she'rlar” deb ataladi. Taroziy g'azalda taxallus bayti bilan bog'liq “mutammimu-l-anqos” va “robita” tushunchalarini sharhlaydi. O'z g'azalidan namunaviy baytlar keltiradi.

3. Qit'a. Birinchi misrasi o'zaro qofiyalanmaydi, juft misralari qofiyalanadi. Hajmi ikki va undan ko'p baytgacha bo'ladi. Mavzu ko'lami, taxallus haqida ma'lumot berilmagan. Mavlono Lutfiy, Ibn Yamin, Mirzo Boysung'ur namunalari keltirilgan.

4. Ruboiy. To'rt misradan iborat. Qofiyalanish jihatidan ikki turi bor: ruboiyi xoss (a-a-b-a) va ruboiyi musarra' (a-a-a-a yoki a-a-b-a bilan birga barcha misralar qofiyalanishi

mumkin). Taroziy ruboiyning vazn talablariga to'xtalmaydi – bu uning davrida turkiy she'riyatda aruz qoidalari to'liq qaror topmaganligidan dalolat beradi. Sakkokiy va Sayyid Nasimiy misollari keltirilgan.

5. Masnaviy. Har bir bandi ikki misradan iborat, ikkala misra o'zaro qofiyalanadi. Asosan nasriy qissalarni nazm qilish uchun qo'llanadi. Firdavsiyning "Shohnoma"sidan namunalar keltirilgan.

6. Tarji'. Band-band shaklida, bir bahrda yoziladi. Har bir band oxirida takrorlanuvchi bayt (tarji') keladi. Taroziy tarji'ning besh turini ajratadi: har band alohida qofiyalanishi va tarji' bayt takrorlanishi; barcha band bir xil qofiyalanishi va tarji' bayt takrorlanmasligi; barcha band bir qofiyada bo'lishi va tarji' bayti ham shu qofiyada kelishi; har band alohida qofiyalanishi va tarji' baytlari bir qofiya tizimiga ega bo'lishi; har bandning qofiyasi bir xil bo'lishi va tarji' baytlari qofiyasi alohida bo'lishi. Beshinchi tur aslida tarkibbandga to'g'ri keladi.

7. Musammat. Bandga asoslangan she'r shakli. Taroziy musammatning besh turiga izoh beradi: murabba' (to'rt misrali band), muxammas (besh misrali), musaddas (olti misrali), musamman (sakkiz misrali) va muashshar (o'n misrali). Qofiyalanish tizimini har bir tur uchun alohida bayon qiladi. Misollar orqali bu janrlarning yaratilish xususiyatlarini ko'rsatadi.

8. Mustazod. Taroziy bu nav'ni o'n she'r nav'i qatorida sanasa-da, uning sharhi to'liq berilmagan. Podshoh Ali Darvesh qalamiga mansub forsiy tildagi mustazod namunasi keltirilgan, ammo izohsiz qoldirilgan. Bu kotib xatosi bo'lishi mumkin.

9. Mutatavvil. Har bir misradagi juzvlar soni sakkizdan oshmaydi, takalluf bilan o'nga yetkazilishi mumkin. Taroziy bu nav'ga uzoq she'riy parcha misol keltiradi. Mumtoz adabiyotda bu shakl "bahri tavil" nomi bilan ma'lum.

10. Fard. Ikki misra (bir bayt) hajmida bo'ladi. Qofiyalanishi a-a yoki a-b shaklida. Taroziy faqat a-b turini qayd etadi. Axloqiy-ta'limiy va falsafiy mazmundagi fardlarga misollar keltirilgan.

Tuyuq janri masalasi

Taroziy tuyuqni alohida nav' sifatida emas, balki ruboiyning bir turi sifatida qaraydi. Uning ta'rificha, ruboiy qofiyasi tajnis (omonim) orqali ifodalansa, "mujannas" nomli nav' hosil bo'ladi va "turk shoirlarining ixtiroidir va muni turklar tuyuq derlar". Bu ta'rif turkiy she'riyat uchun tuyuq janrining milliy ildizlarini ko'rsatishi jihatidan muhimdir.

Xulosa

Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asari turkiy adabiyotshunoslikka oid bizgacha yetib kelgan ilk nazariy manbadir. Asarning birinchi qismida bayon etilgan o'nta she'r nav'i turkiy adabiyotda janrlar tasnifining dastlabki ilmiy asoslanishidir. Taroziy har bir janrning shakliy xususiyatlarini (hajm, qofiya tizimi, band tuzilishi) aniq belgilab bergan, shuningdek ularga o'z ijodidan va fors-tojik, ozarbayjon, turkiy shoirlardan ko'plab misollar keltirgan. Bu jihatdan asar nafaqat nazariy qo'llanma, balki o'z davri adabiyotining jonli antologiyasi vazifasini ham o'tagan. Asarning ayrim kamchiliklari ham mavjud: mustazod

janri to'liq yoritilmagan, she'r nav'larining faqat shakliy xususiyatlariga e'tibor qaratilgan, beshinchi qism (muammo haqida) bizgacha yetib kelmagan. Alisher Navoiy bu asardan xabardor bo'lmagan, Bobur esa Taroziyni faqat shoir sifatida tilga olgan. Shunga qaramay, "Funun ul-balog'a" turkiy adabiyotshunoslik tarixida muhim bosqich bo'lib, unda ilgari surilgan janr nazariyasi keyingi davrlarda Navoiy, Bobur va jadid adabiyotshunoslari tomonidan rivojlantirildi. Shu ma'noda, ushbu asar turkiy adabiyotshunoslikning ilk poydevori sifatida baholanishi mumkin.

Adabiyotlar

1. Алишер Навоий. 2000. Меъзон ул-авзон / МАТ. 16-жилд. – Т.: Фан.
2. Болтабоев Ҳ. 2008. Шарқ мумтоз поэтикаси. – Т.: ЎМЕДИН.
3. Devin DeWEESE. "The Predecessors of Nava'i in the 'Funun al-balagah' of shaykh Ahmad b. Khudaydad Tarazi" // Journal of Turkish studies, Harvard University, 2005, volume 29, P. 73–163.
4. Ҳайитметов А. 1997. Адабий меросимиз уфқлари. – Т.: Ўқитувчи.
5. Ҳожиаҳмедов А. 2008. Мумтоз бадиият луғати. – Т.: Янги аср авлоди.
6. Валихўжаев Б. 1993. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи (X-XIX). – Т.: Ўзбекистон.
7. Yusupova D. 2021. Aruz va mumtoz poetikaga kirish. – Т.: Malik Print Co.
8. Yusupova D. Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asarida turkiy aruz masalalari // "O'zbekiston xorijiy tillar" ilmiy-metodik elektron jurnali, 2018, №4 (23).
9. Заҳириддин Муҳаммад Бобир. 1971. Мухтасар / Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов. – Т.: Фан.
10. Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. 2017. «Фунун ул-балоға» / Масъул муҳаррир Ш.Сирожиддинов. – Т.: Мумтоз сўз.